

МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА ЗАМОНАВИЙ РАЗАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР ОРКАЛИ ТА’ЛИМ VA СИФАТЛИ ТА’ЛИМ ТИЗИМИНИ ЯРАТИШ

Xalilova Maxliyo Xamdamjonovna

Andijon viloyati Qo‘rg‘ontepa tumani

Qorasuv shaxar 1-son DMTT direktori

Annatatsiya: Ushbu maqaolada ta’lim berishda zamonaviy raqamli texnologiyalarning o‘rni va boshqaruvdagi sifatli ta’lim berishni tashkil qilish, boshqaruvni tashkil qilishda rahbarning o‘rni haqida aytib o‘tilgan.

Аннотация: В данной статье описана роль современных цифровых технологий в образовании и роль лидера в организации качественного образования в менеджменте.

Abstract: This article describes the role of modern digital technologies in education and the role of the leader in the organization of quality education in management.

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiyalar, pedagoglar, boshqaruv, rahbarlar, sifatli ta’lim berish, zamonaviy texnologiyalar, multimedia, masofaviy ta’lim.

Ключевые слова: цифровые технологии, педагоги, менеджмент, лидеры, качественное образование, современные технологии, мультимедиа, дистанционное образование.

Key words: digital technologies, pedagogues, management, leaders, quality education, modern technologies, multimedia, distance education.

Har bir rahbar o‘z ish uslubi mavjud bo‘lib, bazi vaqtarda masofaviy ta’lim berish yoki ta’lim jarayonlarini boshqarishga to‘g‘ri keladi. “Ushbu ta’lim turi dunyo mikyosida keng qo‘llanlib samara berib kelayotganligini inobatga oladigan bulsak, masofaviy ta’limning uziga xos texnologiyaviy turlari va ushbu ta’lim shaklini tashkil etishdagi ishtirokchilari mavjud. Masofaviy ta’limning asosiy texnologiyalariga kuyidagilarni kiritish mumkin:

- Interaktiv texnologiyalar;
- internet masofaviy ta’lim portali;
- video va audio konferentsiyalar;
- elektron pochta orkali ta’lim olish;
- internet orqali mustakil ta’lim olish;
- uzoqdan boshkarish tizimlari;
- onlayn simulyator va o‘quv dasturlarining mavjudligi va boshqalar”


Bilamizki pandemiya davrida ma'lum vaqtgacha ta'lim jarayonlarini masofaviy olib borish balki boshqarishga to'g'ri keldi. Bu vaqt davomida video konferensiyalar orqali ham ta'lim jarayonlari olib bordik.

Zamonaviy raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari

- **Interaktiv doskalar:** darslarni vizual va interaktiv qilib o'tish imkonini beradi.
- **Ta'lim ilovalari va dasturlari:** bolalarning o'quv motivatsiyasini oshiradi (masalan, rasm chizish, alfavit o'rGANISH).
- **Multimedia resurslari:** video, audio va animatsiyalar orqali o'quv jarayonini boyitadi.
- **Virtual va qo'shimcha reallik (VR/AR):** qiziqarli ta'lim muhitini yaratadi va bolalarda ijodkorlikni oshiradi.

Video va audio konferentsiyalar - bu Internet va boshka telekomunikatsion aloqa kanallari yordamida, ikkita uzoqlashgan auditoriyalarni telekommunikatsion xolatda bir biri bilan boglab ta'lim olish yuli. Video va audio konferentsiyalar uchun katta xajmda maxsus texnika, yukori tezlikka ega bo'lgan aloqa kanali va o'qitishni tashkil qilish uchun xizmat kursatuvchi mutaxassislarni jalb etish kerak bo'ladi. Texnologiyadan foydalanishni o'rGANISH hayotiy ko'nikma va muhim savodxonlik qobiliyatidir. Hozirda ta'limga axborot texnologiyalarini joriy etish jarayoni davom etmoqda. Bu ko'p vaqt va kuch talab etadi, lekin oxir-oqibatda "texnologiya" - bu yangi bilim va yangi tajribaga yo'l". Vaqt o'tishi bilan texnologiyadan foydalanish pedagoglar uchun tanish bo'lib qoladi va amalga oshirish oson bo'ladi.

Albatta dars jarayonida, hox u uyda, istalgan joydan multimedia vositalari orqali ta'lim berish va olish imkoniyatlarini, aynan bizning xududlarimizda kompyuter orqali amalga oshirish imkoniyatlari mavjudligi bilan quvonarli. **Multimedia** - bu kompyuter texnologiyalari sohasi turli xil (matn, grafik, audio) kompyuter vositalaridan foydalangan holda axborot materialni to'g'ridan to'g'ri ko'proq vizual va esda qolarli tarzda ma'lumotni yaratishga imkon beradi. Multimedia resurslaridan foydalangan holda darslar o'tkazish tarbiyalanuvchilarning bilim olishi uchun eng kuchli rag'batdir. Bunday darslarda tarbiyalanuvchilarning aqliy jarayonlari yaxshilanadi. Mashg'ulot jarayonida tarbiyalanuvchilarda diqqat, xotira, fikrlash ancha faolroq va tez sodir bo'ladi va kognitiv qiziqish ortadi.



Vositalaridan foydalangan holda axborot materialni to'g'ridan to'g'ri ko'proq vizual va esda qolarli tarzda ma'lumotni yaratishga imkon beradi. Multimedia resurslaridan foydalangan holda darslar o'tkazish tarbiyalanuvchilarning bilim olishi uchun eng kuchli rag'batdir. Bunday darslarda tarbiyalanuvchilarning aqliy jarayonlari yaxshilanadi. Mashg'ulot jarayonida tarbiyalanuvchilarda diqqat, xotira, fikrlash ancha faolroq va tez sodir bo'ladi va kognitiv qiziqish ortadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, zamonaviy axborot va kommunikatsiyalar texnologiyalar an'anaviy ta'limning o'rnini bosmaydi, aksincha, uni to'ldiradi,

o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro munosabatlar uchun yangi imkoniyatlar yaratish, ta'minlash o'quv materialini taqdim etish vositalarini tanlashda ijodkorlik erkinligi tomonidan shakllantirilgan ta'lif sifatining o'sishiga pirovardida hissa qo'shadi talabalarning bilim, ko'nikma va malakalari sifati ortib boradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'lif muhiti, ta'lif jarayonining o'zi sifatini yaxshilash, Shuningdek, ular pedagogning malakasiga ma'lum talablarni qo'yadilar, undan doimiy ravishda o'zining axborot texnologiyalari bo'yicha malakasini takomillashtirish va yaxshilashni talab qiladi.

Ta'lifni jarayonini boshqarish qonuniyatlar boshqaruva jarayonida turli elementlar va hodisalarining ob'ektiv ravishda mavjud bo'lgan, takrorlanuvchi o'zaro aloqalarini aks ettiradi. Ular umumiyligi va xususiyiga bo'linadi. Umumiyligi qonuniyatlar boshqaruvning barcha tizimlariga xos bo'lsa, xususiyatlari ayrim ta'lif tashkilotlari va muassasalarining amal qilishi bilan bog'liq. Quyidagilarni boshqaruvning umumiyligi qonuniyatlar sirasiga kiritish mumkin: ustuvor samaradorlik va ongli rejali boshqarish; boshqaradigan va boshqariladigan tizimlarning, boshqarish sub'ekti va ob'ektining o'zaro munosabati, boshqaruvda mehnat taqsimoti va kooperatsiyasi jarayonlarini kuchaytirish. Ushbu qonuniyatlarni ko'rib chiqamiz. Ta'lifni zamonaviy texnologiyalar orqali ongli boshqarishning ustuvor samaradorligi qonuniyidir, chunki unda kechayotgan jarayonlarni rejali boshqarish tizimi amalda ushbu jarayonlarni beixtiyor tartibga soladigan boshqarish tizimlaridan samaraliroqdir. Hozirgi ta'lifda boshqarishning barcha darajalarida dasturiy-maqsadli yondashuv, tizimli yondashuv va tahlil keng qo'llanilayotganligi buning dalilidir. Ta'lif va tarbiya har qanday jamiyatning ajralmas tarkibiy qismi, madaniyatining ko'rsatkichi va taraqqiyotining asosidir. U ijtimoiy tajriba, ma'naviy-axloqiy va madaniy an'analarning birligini va vorisiyligini hamda jamiyat rivojini ta'minlaydi. Ushbu dastur ta'lif va tarbiyani boshqarishning zamonaviy tizimi va uni boshqarishning asosiy tamoyillari, xususiyatlari Maktabgacha ta'lif tomonidan maktabgacha ta'lifni boshqarishning maqsadi, vazifalari, maktabgacha ta'lif va tarbiyani boshqarishning vazifasi, boshqarish usullari, shakllari, tamoyillari, qonuniyatlari shuningdek, turli tipdagi maktabgacha ta'lif tashkilotlarini tashkil etishning prinsiplari va unga ilmiy-nazariy yondashuviga etibor qaratiladi. Ta'lifni jarayonini rejali boshqarish tamoyili ham dasturiy-maqsadli boshqarish bilan bog'liq bo'lib, harakat dasturini tuzish va uni amalga oshirishni ko'zda tutadi. Rejalilik ish sharoitini normallashtirish va uni ijrochilar o'rtasida taqsimlashda ijrochilar xatti-harakatlarini muvofiqlashtirish va ularga yo'l-yo'riq berishda, shuningdek har bir ishning va umuman dasturning bajarilishini hisobga olish va nazorat qilishni tashkil etishda namoyon bo'ladi. Ushbu tamoyilning amalda bajarilishi butun boshqaruv tizimi reja asosida tashkil etilishiga olib keladi. Aniq maqsadga yo'naltirilganlik

tamoyili qo‘yilgan maqsadlarga emas, balki ana shu maqsadlarning zarur resurslar bilan nisbati darajasini aniqlashni ham nazarda tutadi. Bunda maqsadlarni ularga erishish uchun zarur bo‘lgan asosiy resurslar bilan bog‘lashni ta’minlashgina emas, balki diqqat-e’tiborni maqsadlarga erishishga xalaqit berayotgan eng zaif bo‘g‘inga qaratish ham kerak bo‘ladi.

Boshqaruvning har qanday tizimida har qanday darajada mavjud bo‘lishi kerak bo‘lgan intizom boshqaruvning ajralmas tamoyili hisoblanadi. Intizom rahbar ko‘rsatmalarining, lavozim vazifalarining, yo‘riqnomalarning, buyruqlarning va boshqa direktiv hujjatlarning shubhasiz bajarilishini ko‘zda tutadi. Intizom darjasini ko‘p jihatdan boshqaruva madaniyatini belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Babayeva Dono Razzaqovna, Abdullayeva Masuda Abdubannaevna, Jumasheva Gulnara Xamidullaevna. Maktabgacha ta’limni boshqarishning ilmiy asoslari.O’quv qo’llanma. Toshkent.2020.-B.75.
2. Н.Ф.Ткач. Стратегическое управление в образовании: Учебное пособие для управленческих кадров / Н.Ф. Ткач, С.В. Шишов - Мурманск; Хельсинки: НИЦ "Пазори", 2000. 3. И.Н. Герчикова. М
3. Allayarova, S.N. Implementation of modern information communication technologies (Ict) in higher education sector: International experience and the example of Uzbekistan (2019) International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering, 9 (1), pp. 386-392.
4. S. N. Allayarova “Masofaviy ta“lim: mazmuni, imkoniyatlari va kamchiliklari” Academic research in educational sciences. 2021 yil. 930-935-betlar.
5. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini ax-borotlashtirishni tashkil etish va boshkarish nazariyasi va amaliyoti. Pedagogika fanlari doktori ilmiy daraja-sini olish uchun yozilgan dissertatsiya. - T.: 2007. -305-b.